



Yetuklik yoshidagi jinoyat sodir qilgan shaxslarning o‘zini-o‘zi anglash jarayonidagi psixologik xususiyatlari va xavfliligi

**Urganch shaxri bo‘yicha IIO FMB TQX JQB boshlig‘i podpolkovnik
Xudaybergenov Navruz Baxtiyarovich**

Annotatsiya: Psixologiyada yetuklik yoshidaga shaxslarning o‘zini-o‘zi anlagan holda jinoyatlar sodir qilishga olib keluvchi psixologik motivi va maqsadlari, o‘zini-o‘zi anglash jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy, siyosiy, ijtimoiy-ruhiy, tarbiyaviy, ijtimoiy boshqaruv yo‘nalishidagi psixologik xususiyatlarini va tiplarini muxokama qiladi.

Kalit so‘zlar: Psixologiya, shaxs, o‘zini-o‘zi anglash, yetuklik, jinoyat, ruxiyat, motiv.

Ushbu maqolaning maqsadi. Psixologiyada yetuklikning yoshida o‘zini-o‘zi anlagan holda jinoyatlar sodir qilishga olib keluvchi psixologik motivi va maqsadi, tashqi va ichki emotsiyalari, o‘zini-o‘zi anglash jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy, siyosiy, ijtimoiy-ruhiy, tarbiyaviy, ijtimoiy boshqaruv yo‘nalishidagi psixologik yuzaga keluvchi xususiyatlari va tiplari. Jinoyat sodir qilgan shaxslar bilan qanday ishslashni va sodir etgan jinoyatining ijtimoiy xuquqiy oqibatlarini psixologik anglashi, o‘zini-o‘zi anglash jarayonlarini o‘rganishdir.

Ish huquqni muhofaza qilish organlari, psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar uchun shaxslarning kelgusida o‘g‘irlik jinoyatlari sodir qilinishini oldini olish maqsadida psixologik o‘rganishlar sohasida ishlaydigan barcha uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Annotatsiya: В психологии рассматриваются психологические мотивы и цели, которые приводят к самосознанию личности к совершению преступлений в возрасте зрелости, социально-экономические, идеологические, политические, социально-духовные, образовательные, социальные управления в процессе самосознания. его психологические особенности.

Klyuchevye slova: Психология, личность, самосознание, зрелость, преступление, настроение, мотив.

Abstract: In psychology, the psychological motives and goals that lead to the self-awareness of individuals to commit crimes at the age of maturity, socio-economic, ideological, political, socio-spiritual, educational, social management in the process of self-awareness discusses its psychological features.

Keywords: Psychology, lichnost, samosoznanie, zrelost, prestuplenie, nastroenie, motive.

Shaxs-ijtimoiy-ma’naviy, axloqiy mohiyatni o‘zida mujassamlashtirgan insonni (individni) anglatuvchi tushuncha¹. Shaxs – biofiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy va estetik fazilat va xislatlarning yaxlit bir butunlikka aylanishi hamda munosabatlar tizimi bilan qamrab olinishidir.

Shaxsnинг shakllanishida quyidagi omillar qatnashadi:

- 1) biologik (nasl);
- 2) tabiiy muhit;
- 3) madaniy muhit;
- 4) ijtimoiy tajriba;
- 5) odamlar bilan munosabat².

Shaxs madaniylashgan jonzot, ijtimoiy-tarixiy tajribaga ega bo‘lgan muayyan avlod vakili, odamlararo munosabatlar sub’ekti bo‘lishi ham mumkin. Bu uch omil ham shaxs hayoti va faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy hayot tajribasini o‘zlashtirgan, o‘z ijtimoiy pozitsiyasini ishlab chiqqan, ijtimoiy munosabatlar tashuvchisi va bunyodkori sifatida amal qiluvchi odamgina shaxs hisoblanadi. “Shaxs” tushunchasi insonning ijtimoiy foydali mehnatga munosabatini, inson ijtimoiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan xossalarni shakllantirish uchun o‘zi ustida qanday ishlashini muqarrar tarzda qamrab oladi³.

Shaxs–odamning ongi, sezgilari va xohish irodasini shakllantiruvchi psixologik ijtimoiy munosabatlarning muayyan borlig‘idir.

Jinoyat sub’ekti shaxsini o‘rganish zamirida yuqorida qayd etilgan umumiylasosiy qoidalar yotishi lozim.

Jinoyatchi shaxsi–avvalo jinoyat sub’ektining shaxsidir. Jinoyat qonunchiligiga binoan jinoyat sub’ekti uni aynan sub’ekt deb topish uchun zarur ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi lozim. Bunday ko‘rsatkichlar uchta:

- jismoniy shaxs,
- shaxsnинг muayyan yoshga to‘lganligi,
- aqli rasolik.

Jinoyatchi shaxsini to‘laqonli tavsiflash va baholash uchun uning ham psixologik ijjobiy, ham psixologik salbiy xulq-atvorini belgilovchi barcha xislatlari va xususiyatlarini, unga xos bo‘lgan barcha xislatlar tizimida psixologik ijtimoiy salbiy xossalalar ulushini hisobga olish zarur.

Jinoiy xulq–atvorining paydo bo‘lishida his-hayajon va bundan tashqari, emotsiyali siqilish qanchalik yuqori bo‘lsa, shunchalik uning aql idroki va irodasiga ta’sir qiladi. Shu boisdan inson ongiga emotsiyaning qanday ta’sir ko‘rsatishi turli faktorlarga bog‘liq bo‘ladi. Insonning emotsiyonal xulq atvori uning, ba’zi a’zolariga ta’sir etadi. Inson xatti-harakati uning shaxsiyati bilangina sababiy bog‘lanmasdan,

balki biologik, psixofiziologik holatlar bilan ham bog‘liqdir⁴. Ko‘rinib turibdiki shaxs – muhitning, ijtimoiy tarixiy sharoitlarning mahsulidir.

“Individning biologik xususiyatlarida hayot, real hayotiy, maishiy vaziyatlar o‘zining muayyan izini qoldiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi”. Insonning tabiiy mavjudot sifatida hayvondan farqi shundaki, u ongli, faol mavjudotdir. Shu sababli u, oldiga qo‘yilgan maqsadlarga muvofiq, tabiatdan o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish bilan bir vaqtda, uni o‘zgartiradi. Shu bilan birga, odamda ong mavjudligining o‘zi uni shaxs sifatida tavsiflamaydi. Insonda ongning mavjudligi uning ijtimoiy va biologik jihatlari o‘zaro nisbatini aniqlashda muhim ahamiyatga egadir. Zotan, ong ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Ong insonning ob’ektiv borliqni, odamning boshqa odamlar bilan ob’ektiv munosabatlarini aks ettirish shakli sifatida amal qiladi. Binobarin, ushbu munosabatlar o‘z manbaiga ko‘ra ijtimoiy xususiyatga egadir.

Yu.D.Bluvshteyn jinoyatchi shaxsining demografik, ijtimoiy, huquqiy, psixologik va biologik (tibbiy) belgilarini farqlaydi⁵.

A.B.Saxarov dastlab jinoyatchi shaxsining belgilarini ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy biologik toifalarga ajratishni taklif qilgan edi. Biroq, keyinchalik u o‘z fikrini muayyan darajada o‘zgartirdi va shaxsning biologik belgilari turkumini ro‘yxatdan chiqarib tashladi⁶.

Har qanday jinoiy harakat avvalo odamning intellektual, emotsiyal va axloqiy fazilatlari va xislatlarini aks ettiradi.

Bunda ijtimoiy-demografik belgilar – jins, yosh, oilaviy va ijtimoiy holat, ma’lumot, kasb va hokazolar aholi turli ijtimoiy tabaqalarining jinoiy faolligini aniqlash, jinoyat sodir etgan shaxslarning yosh va jins xususiyatlarini kuzatishga yordam beradi. Shaxsning oilaviy va ijtimoiy holatini tadqiq qilish muayyan jinoyatchining shaxsi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan kriminogen omillar va holatlarni aniqlashga ko‘maklashadi.

Ijtimoiy-psixologik tavsifi “shaxs-muhit” o‘zaro ta’sir mexanizmlarini o‘rganishga, jinoyatchining shaxsi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi nojo‘ya shart sharoitlarni aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Emotsiyalar, intellekt va iroda sohalarini tahlil qilish individual jinoiy xulq-atvor motivatsiya jarayonlari haqida xulosalar chiqarish, jinoyatning muayyan motivlari va sabablarini aniqlash imkonini beradi. Xususan, intellekt shaxsning aqliy rivojlanish darajasini, o‘zini qurshagan muhit haqidagi bilimlari hajmi va ularning chuqurlik darajasini, ma’rifiy qiziqishlari mazmuni, doirasi va hajmini, ijtimoiy munosabatlari hajmini belgilaydi.

Ijtimoiy-psixologik tahlil pirovardida shaxsning jinoiy xulq-atvoriga ta’sir etuvchi bevosita sabablar va sharoitlarning amal qilish mexanizmini tushunib yetish

imkonini beradi. U jinoyatchi shaxsi g‘ayriijtimoiy yo‘nalishining mazmunini, uning salbiy ko‘rinish kasb etgan qarashlari va moyilliklari, ehtiyojlari va manfaatlarini yoritishga ko‘maklashadi. Bularning barchasi, o‘z navbatida, jinoyatga turtki bergan omillarni aniqlashga yordam beradi. Har qanday xulq-atvor, shu jumladan, jinoiy xulq-atvor ham ijtimoiy axloqiy mazmun va mezonga ega bo‘ladi, shaxsnинг axloqiy xususiyatlari va xislatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Axloqiy bilish va axloqiy munosabatlar shaxs xulq-atvorini boshqarishning asosiy omillari qatoriga kiradi. Bu fazilatlar va xislatlar shaxsnинг ma’naviy yetuklik darajasini aks ettiradi va uning har qanday qilmishi va xatti harakatlarini belgilab beradi. Odamning ongli faoliyatida ma’naviy sezgilar, kayfiyatlar va munosabatlar ham namoyon bo‘ladi. Shaxsnинг ijtimoiy belgilari asosan uning jamiyatdagi, jamoadagi, mikromuhitdagi o‘rni, ya’ni uning ijtimoiy holati bilan tavsiflanadi.

Jinoyat sub’ektining shaxsi–odamning o‘zini ham, uning hayoti va faoliyatining turli tomonlari va ko‘rinishlarini ham tavsiflovchi ijtimoiy ahamiyatga molik va individual belgilari, xossalari, xislatlari va boshqa ko‘rsatkichlarining muayyan majmuidir.

Jinoyatchi shaxslarning ijtimoiy-demografik belgilari tahlili shaxs shakllangan muhit uning hayotiy faoliyati, ehtiyojlari va motivatsiyasi (xohish, istaklari) bilan bog‘liqdir. Shu sababdan ham ijtimoiy demografik sifatlarni o‘rganish jinoyatchi shaxsini tushunishining muhim elementi hisoblanadi va profilaktika choralarini ishlab chiqish va amalda qo‘llashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatchi shaxsining tipologiyasini o‘rganish faqat uslubiy jihatdan ilmiy asoslangan bo‘lsagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Shunga muvofiq jinoyatchi shaxsining kriminologik tipologiyasi masalalari alohida o‘rganiladi. Psixologik ijtimoiy tip muammosi–individuallik ma’lumotlarining ijtimoiylikka, tarixan o‘xshash zaruriy va jiddiy bo‘lgan yagonalikdan umumiylilikka bo‘lgan ma’lumotlarni bilishdir. Bu muammo, eng avvalo, jamiyat va individning bir-biriga bog‘liqligi, uzaro aloqadorlikda, dialektik jihatdan jamiyat va individning ob’ektiv ravishdagi dialektik aloqadorligida ifodalanadi.

Shaxs tipidagi ijtimoiylik–individning hayotida muayyan tarixiy ijtimoiy sharoitda bevosita determinlashgan ijtimoiy hayotidir. Unda ijtimoiy muhit va ijtimoiy munosabatlarning dialektik birligi o‘z ifodasini topgan. Bu jarayonning asoslarida tashqi ijtimoiy munosabatlarning (moddiy va ma’naviy) shaxsnинг ichki tuzilishiga aylanishi, ya’ni uning ehtiyojlari, manfaatlari, dunyoqarashi kabi ichki tuzilishini tashkil etuvchi jarayon hisoblanadi.

1897 yili Xalqaro kriminalistlar uyushmasining Geydelbergda bo‘lib o‘tgan s’ezdida jinoyatchilarning tasnifi qabul qilingan bo‘lib, Ushbu tasnifga ko‘ra jinoyatchilar:

- 1) tasodifiy, epizodik jinoyatchilar;
- 2) xulq atvorida jiddiy beqarorlik bo‘lgan yoki bir necha marta jinoyat sodir etgan;
- 3) ashaddiy yoki professional jinoyatchilarga ajratildi.

Jinoyatchilar shaxsining umumiy tipologiyasini ishlab chiqishda biz psixologiyada shakllangan quyidagi talablardan kelib chiqdik:

- 1) tipologiya muayyan ijtimoiy shart sharoitlardan uzilib qolmasligi kerak;
- 2) tipologiya shaxslarni bir turkumga birlashtiruvchi muhim fe'l-atvor xususiyatlarini ochib berishi lozim;
- 3) tipologiya hayotiy materialga asoslanishi va alohida muayyan vaziyatlarga xos bo‘lgan holatlarni tushuntirish uchun xizmat qilishi kerak⁷.

Ch.Lombrozo ham o‘zining “Jinoyatchi va fohisha ayol” asarida jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxslarni bir nechta tiplarga ajratadi:

- 1) tug‘ma jinoyatchi shaxslar;
- 2) tasodifiy jinoyatchi shaxslar;
- 3) ehtirosli jinoyatchi shaxslar.

Lombrago o‘z joniga qasd qilgan va chaqalog‘ini o‘ldirgan shaxslarni alohida ko‘rib chiqadi, fohishalarni ham ikkita: tasodifiy va tug‘ma toifadagilarga ajratadi⁸.

Tipologiya shaxslarni turlarga ajratish haqidagi ta’limot bo‘lgani holda, o‘z navbatida jinoiy xulq atvorning o‘xshash namunalarini uning umumiy modeliga birlashtiradi. Bunda birinchi navbatda shaxsning eng muhim kriminologik yoki uning jinoyat-huquqiy alomatlari: jinoyatning sabablari, shaxsning kriminogenliligi yoki ijtimoiy xavflilik darajasi, ularning chuqurligi, qat’iyligi, yo‘nalishi e’tiborga olinadi.

Jinoyatchining shaxsi, jinoyatchi bo‘lmagan odamning shaxsidan ijtimoiy xavflilik darajasi bilan farq qiladi. Shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi esa mazkur yo‘nalishning qat’iyligi va chuqurligidan kelib chiqib farqlanadi⁹.

Jinoyatchilarni har xil asoslarga ko‘ra tasniflash mumkin. Jinoyatchilarni ular sodir etgan jinoyatlarning turlari yoki xususiyatiga ko‘ra tasniflash (“o‘g‘rilar”, “firibgarlar”, “bezorilar”, “zo‘rlik ishlaturuvchilar”, “poraxo‘rlar” va h.k.) eng sodda va umumiy e’tirof etilgan tasnifdir. Jinoyat sodir etish motivlarining xususiyatiga ko‘ra jinoyatchilarning “g‘arazgo‘y”, “zo‘ravon”, “nufuzli” va boshqa tiplari farqlanadi. Ruhiy sog‘lomlik darajasiga ko‘ra jinoyatchilar ruhan sog‘lom, ruhiy kasallik bilan chegaradosh holatda, psixopat yoki ruhiy kasal bo‘ladi. Jinoyatchilarni ijtimoiy-demografik belgilariga ko‘ra: voyaga yetmagan jinoyatchilar, shu jumladan

o‘g‘il bolalar va qiz bolalar; jinoyatchi ayollar; xizmatchi jinoyatchilar; o‘quvchi-jinoyatchilar; jinoyatchi harbiy xizmatchilar; transport sohasidagi jinoyatchilar; tijorat sohasidagi jinoyatchilar va h.k.

Jinoyatchilarni kriminogen zararlanish darajasiga qarab tasniflash holatlari ham uchraydi:

- a) shaxsning umumiyo yo‘nalishi ijobiy bo‘lgan holda nisbatan yengil jinoyatlarni birinchi marta sodir etgan shaxslar toifasi (“tasodifiy” jinoyatchilar);
- b) alohida tashqi nojo‘ya holatlар ta’sirida og‘ir jinoyatlarni birinchi marta sodir etgan shaxslar (“situativ” jinoyatchilar);
- v) og‘ir jinoyatlarni birinchi marta sodir etgan, lekin ilgari boshqa huquqbazarliklarga yo‘l qo‘yan shaxslar (“beqaror” jinoyatchilar);
- g) bir necha marta jinoyat sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan shaxslar (“ashaddiy” jinoyatchilar);
- d) ko‘p marta qasddan og‘ir jinoyat sodir etgan shaxslar (“o‘ta xavfli” jinoyatchilar).

Jinoyat motivatsiyasining xususiyati va mazmuniga ko‘ra, umumiyo ko‘rinishda jinoyatchilarni quyidagi jinoiy tiplarga ajratish mumkin:

- a) zo‘ravon shaxs;
- b) g‘araz maqsadli;
- g) extiyotkor bo‘lmagan tip;
- d) qaram tip.

Shaxsning kriminogen motivatsiyaga moyilligining chuqurligi va turg‘unligi jihatidan jinoyatchilarni kuyidagi shaxsiy tiplarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

- a) tasodifiy;
- b) vaziyatga bog‘liq jinoyatchilar;
- v) beqaror jinoyatchilar;
- g) professional jinoyatchilar.

Umumiyo xulosa shuki, har qanday tasnif muayyan darajada shartlidir, degan fikrga deyarli barcha psixolog va kriminologlar qo‘shiladi. ZOTAN, tasniflash uchun qanday mezon asos qilib olinganligi yoki tasniflashdan qanday maqsad ko‘zlanganligiga qarab, jinoyatchilar tasnifi va xususiyatlari har xil bo‘lishi mumkin. Shu sababli amalda yuqorida ko‘rsatilgan tiplardan birontasiga ham mos kelmaydigan, ayni vaqtida psixologik “aralash” belgilarga ega bo‘lgan jinoyatchilar uchrashi mumkin. Jinoyatchi shaxsini shakillanishi nafaqat ijtimoiy turmush tarzi oiladagi tarbiyadagi bo‘shliqlar, psixologiyasidagi o‘zgarishlar yoki siljishlar balki ijtimoiy turmush tarzi davomida munosabatlar ta’siri ham katta rol o‘ynaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, kelgusida jinoyatlarni sodir etilishini oldini olish va shaxsni psixologik jixatdan qo’llab-quvvatlash, huquqiy ongni va jinoyat oqibatlarini

huquqiy nuqtai nazardan tushuntirish, jinoyati sodir etish extimoli bo‘lgan shaxslar bilan doimiy ravishda psixologik yo‘nalishida ya’ni ruxiyatini o‘rgangan holda chuqurroq anglash va kelgusida jinoyatlar sodir qilinishiga qarshi vaksina yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. / Mas’ul muharrir: Q.Nazarov. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2010. – B. 632.
2. Falsafa: qomusiy lug‘at. / Mas’ul muharrir: Q.Nazarov. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 450.
3. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik. – Toshkent: TDYUl, 2008. – B. 61.
4. Kudryavsev S.V. Vzaimodeystvie sotsialno-ekonomicheskix i sotsialno-psixologicheskix protsessov v genezise prestupnosti. “Sovetskoe Gosudarstvo i pravo” 1985 №12. -S.22
5. Bluvshteyn Yu.D. Teoreticheskie voprosy statisticheskogo poznaniya lichnosti prestupnika po materialam ugolovnykh.
6. Saxarov A.B. Kriminologiya i profilaktika prestupleniya. Uchebnik dlya VUZov MVD, 1999. – S. 100.
7. Levitov N.D. Psixologiya xaraktera. –M., 2009. – S. 300-301.
8. Lombrozo Ch. Genialnost i pomeshatelstvo. – Sevastopol: Renome, 1998. – S. 400.
9. Kriminologiya. – M., 1994. – S. 110.
10. Melikishvili L.A. Tipologicheskie modeli lichnosti jenščin-prestupnis. Sovremennaya prestupnost. Nozye issledovanie. – M., 1993. – S. 136-141.

Research Science and Innovation House